

METHODS OF SPEECH DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN USING FAIRY TALES

Ostonova Kholida Bakhtiyor qizi

JDPI Faculty of Preschool Education

Theory and methods of education (Preschool education)
specialty 1st stage master's degree

Annotatsiya: Ushbu maqolada ertak haqida umumiyl tushuncha maktabgacha yoshdag bolalarning nutqini o'stirishda ertakning ahamiyati bo'yicha ma'lumot va tavsiyalar keltirilgan bo'lib, ushbu maqoladan ota-onalar, bo'lajak tarbiyachilar, MTT pedagoglari foydalanishi mumkin.

Аннотация: В данной статье приведены общие сведения о сказках, информация и рекомендации о значении сказок в развитии речи дошкольников, которые могут быть использованы родителями, будущими воспитателями, педагогами МТТ.

Abstract: This article provides general information about fairy tales, information and recommendations on the importance of fairy tales in the development of speech in preschool children, and this article can be used by parents, future educators, teachers of MTT.

Kalit so'zlar: ertak, metal, cho'pchak, nutq, syujet, muloqot.

Ключевые слова: сказка, металл, загадка, речь, сюжет, диалог.

Keywords: fairy tale, metal, puzzle, speech, plot, dialogue.

Ertak — xalq ogzaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligidagi real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqealari rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezbilik kuchining — yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlar bo'ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezbilik ro'yobga

chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning nutqini rivojlantirishda ertak alohida ahamiyatga ega. Inson o'z fikrlarini ifodalashda nutqdan foydalanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida lug'at boyligini oshirish, nutqni rivojlantirish amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning nutqini rivojlantirish xilma-xil faoliyat turlarida amalga oshadi:

- 1) tabiat ob'ektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;
- 2) badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;
- 3) savodga o'rgatishda;
- 4) o'yin faoliyatida;
- 5) ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish asosida.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihat uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihat u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalq ertaklari, rivoyatlar va xalq o'yinlari orqali bolalar nutq madaniyatini rivojlantirish.

«Tulki, quyon va xo'roz» xalq ertagi:

- Bola mazkur ertak mazmunini qabul qilib tushundimi?
- Bola ko'rgazma asosida ertak mazmunini so'zlab bera oladimi?
- Bola ertak mazmunini ko'rgazmali vositasiz so'zlay oladimi?

Bolalarga ertak o'qib berilgandan keyin bir kun o'tib, har bir bola bilan ushbu ertak bo'yicha tajriba uchun suhbat o'tkazildi. Ertak yuzasidan quyidagi savollar berildi:

1. Tulkining uyi quyonning uyidan nimasi bilan farq qiladi?
2. Nimaga tulki quyonni uyidan haydar chiqardi?
3. Xo'roz quyonni qanday qilib qutqardi?

Savollardan ko'rinish turibdiki, birinchi savol ertakdagi parchani qayta hikoya qilib berishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi savolimiz ertak bo'yicha bola o'z fikrini bildirishga qaratilgan. Uchinchi savolimiz esa, nutqning ifodaviyligini talab etadi.

Rivoyat.

Bir kampirning o'g'li bor ekan. Uning xotini va to'rt yoshli o'g'li bor ekan. Nabira buvisini nihoyatda yaxshi ko'rarkan. Har kuni kelin ovqat pishirib qaynonasiga yog'och kosa, yog'och qoshiqda ovqat berar ekan. Nabira buni kuzatib borar va ajablanar edi. Bir kuni kelin o'g'li yog'ochdan nimadir yasayotganini ko'rib qolibdi.

-Nima yasayapsan, bolam? deb so'rabdi onasi.

-Siz bilan otamga tovoq yasayapman. Katta bo'lginimda sizlarga shunda ovqat beraman, debdi o'g'il. Kelin o'z qilmishidan pushaymon bo'lib, qaynonasiga mehribon bo'la boshlabdi.

Bir kunday so'ng har bir bolaga mazkur rivoyat bo'yicha quyidagi savollar berildi:

- Kelin qaynonasiga ovqatni nimada berar edi?
- Kelin o'g'li yog'ochdan nimadir yasayotganini ko'rib, nima qilayapsan bolam, deb so'raganda qanday javobni eshitdi?
- Keyin nima bo'ldi?

Ertak yordamida bolalar nutqini o'stirish uchun bolalar bilan ishslashda bolalarga quyidagicha savollar bilan jalb qilish kerak

- Ertakning nomini aytib bering.
- Rasmda tasvirlangan parchani aytib bering.
- Rivoyatda tasvirlangan parchani aytib bering.

Bolalar nutqini oshirishda ota-onalar tarbiyachilar va boshqalarga quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

- bolaga doimiy ravishda uyqudan oldin yoki boshqa vaqtida ertak aytib berish;
- bolaning yoshiga mos ertak tanlash;
- ertakning syujetiga qiziqarli, bolani jalb qilishi lozim;
- ertakda adabiy tilda mahorat bilan intonatsiya improvizatsiyaga e'tibor berilishi lozim;
- ertak kitoblarini tanlashda syujetga boy rasmli va ko'rgazmali so'zsiz ham tushunsa bo'ladigan kitob tanlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

R.M.Qodirova. O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 56 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., —O'qituvchi||1993.

F.R.Qodirova. Maktabgacha yoshdagidan bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.

R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagidi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.

F.R.Qodirova. R.M Qodirova. —Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasil. T., —Istiqlol||, 2006.

5.Babayeva D.R. —Nutq o'stirish metodikasil T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psycholog.uz
5. www.nutq.intal.uz